

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani
prof. B.S. Abdullayeva
“ _____ ” _____ 2014-yi
l

«Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish» ta’lim yo‘nalishi

Mavzu: Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin
mashg‘ulotlarini shakllantirish samaradolligi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: IV bosqich “403” guruh talabasi:
Yigitaliyeva Oltinoy Abdumanonova
Ilmiy rahbar: “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
va tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi, katta o‘qituvchisi. M.Arabova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent
X.R.Sanaqulov _____
“ _____ ” _____ 2014-yil

Toshkent 2014

Mundarija.

Kirish.

I bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning nazariy asoslari.

1.1. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirish pedagogik muammo sifatida.

1.2. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning pedagogik mohiyati.

I bob bo'yicha xulosa.

II bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning shakl va usullari.

2.1. O'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishdan foydalanish texnologiyasi.

2.2. O'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishdan foydalanish imkoniyatlari.

II bob bo'yicha xulosa.

III bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini shakllantirish samaradolligi.

3.1. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili.

Xulosalar va metodik tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Kelajagi buyuk davlatda yashayotgan xalqni har tomonlama komil insonlar bo'lishi talab etiladi. Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarni tubdan o'zgartira olmaymiz. Yana bir narsani biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim: iste'dodli yoshlarga sharoit yaratish¹.

O'zbekiston Respublikasi o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohibalarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini yaxshi tassavur qilamiz». Ushbu fikrlardan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarning ijodiy faoliyati dastlab oilada, bog'chada keyinchalik boshlang'ich sinflarda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov «...bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi. Zamonaviy ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola maktabda qanday bilimga ega bo'lishi lozim? Uning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak? Shu masalalarga javob topishimiz zarur.

Shundan kelib chiqib, jahon pedagogikasi erkin ijodiy fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslarini keng miqyosda tadqiq qilgan va ko'plab natijalarni qo'lga kiritgan bo'lsada, jamiyat taraqqiyotida ta'lim tarbiya

¹ И.А.Каримов “Ўзбекистон мустақиллика эришиш оstonасида” Т.: ЎЗБЕКИСТОН 2011-йил 142-бет.

jarayoni zamon talabiga mos holda mustaqil ravishda rivojlanib, takomillashib borishi hozirgi kunda o'z ifodasini topmoqda.

Respublikamizda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas'ul bo'lgan jamiyat a'zolari birinchi galda o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda «Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» deb ta'kidlangan.² Chunki jamiyatimiz taraqqiyoti yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyati uchun zamin yaratuvchi omillar sirasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirgan, shuningdek, pedagogik mahoratga ega o'qituvchilarni tayyorlash alohida o'rin tutadi. Zero, yosh avlodni har jihatdan kamol toptirish, ularda muayyan kasbiy faoliyatni olib borish layoqatini shakllantirish hamda uning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar o'ziga xos rol o'ynaydi.

Shundan kelib chiqib maktab o'quvchilarida shakllanayotgan hamda takomillashib borayotgan kasbiy faoliyati qanday talablarga javob berishi kerak? Boshlang'ich sinf darslarida o'qituvchining mafkurasi qanday faoliyatlar asosida shakllanmog'i lozim? degan savollar hamon o'z javobini kutmoqda. Chunki shaxsning mafkuraviy ongi, muayyan faoliyatlar muvozanatida o'z yechimiga ega bo'lmog'i lozim. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimida shakllanadigan yoshlarning ijodiy faoliyati faqat yangi bilimlarni o'rganish, ma'lumot olish bilan cheklanadigan bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati bir tomonlamaligicha qolib ketadi.

² «Таълим тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни. Баркамол авлод-Ўзбекистон келажагининг пойдевори.-Т.: 1998.21-б.

O'quvchi professionallikning yuqori cho'qqisini egallashida uning ijodiy faoliyati asosiy omillardan biri ekanligiga qaramay Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning rivojlantirib borilishiga e'tibor berilmayotganligi bu mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Bugungi kunda esa o'qituvchi shaxsi ta'lim-tarbiya ishining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi jahon pedagogikasida keng miqyosda tadqiq etilmoqda. O'qituvchi shaxsi muammosi bilan bog'liq masalalar V.I.Xazan, SH.A.Amonashivili, YE.N.Ilin kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash. O.Abdullina, X.Abdukarimov, J.G'.Yo'ldoshev, U.Maxkamov, S.Nishonova, U.Nishonaliyev, M.Ochilov R.Mavlonova kabi olimlar tomonidan o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy-axloqiy sifatlarini takomillashtirish kabi umumpedagogik muammolar haqida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Lekin bu tadqiqotlarda o'qituvchining ijodiy qobiliyati ta'lim-tarbiya samaradorligining bosh omili sifatida ekanligi hamda rivojlantirib, takomillashtirib borish davr talabi ekanligi ilmiy muammo sifatida yaxlit o'rganilmaganligi hisobga olgan holda bitiruv malakaviy mavzusi "Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirish" deb olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirish metodikasidan foydalanishning shakl va usullarini asoslab berish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tegishli metodik tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti - Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirish samaradorligini oshirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti- Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirishning samaradorligini oshirish texnologiyasini shakllantirishning mazmuni, shakli, usuli va uslublari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.

2. Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirishning samaradorligini oshirish texnologiyasiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, shakllari va usullarini ishlab chiqish va ularni tajriba- sinovdan o'tkazish.

3. Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirish samaradorligini oshirish texnologiyasining imkoniyatlarini aniqlash

4. Kichik maktab yoshdagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarni tizimlashtirishning samaradorligini oshirish texnologiyasiga yo'naltirilgan ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: kirish, 3 bob, 5 fasl, umumiy xulosa va tavsiyalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin mashg‘ulotlarini tizimlashtirishning nazariy asoslari.

1.1. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin mashg‘ulotlarini tizimlashtirish pedagogik muammo sifatida.

Ma’lumki, xalqning ijodiy faoliyati uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o‘rin egallab kelgan. Ijodiy izlanuvchanlikning inson taqdiridagi ahamiyati shundaki u doimo o‘zining hayotiyligi, ta’sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyat doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma’naviy jihatdan hal etishda o‘z ta’sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini yechishda asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalqining ijodiy izlanuvchanligi tarix to‘fanlariyu ur yiqitlariga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o‘tib, toblanib, har bir davrda o‘z faoliyatini takomillashtirib, avlodlar tarbiyasida hal qiluvchi rolni o‘ynab keldi.

Ijodiy faoliyat o‘zbek xalqining milliy urf-odatlariga bilan bevosita bog‘liqdir. U xalqning dardi, millat manfaati va ehtiyojini qo‘llab-quvvatlaydi. Kishilarning o‘zini anglashga ta’sir qiladi. Xalqimizning urf-odatlariga, an’analari haqidagi bilim, malaka va boy tajribalarini kelgusi avlodga o‘tishda ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda «pedagogik ijodkorlik» tushunchasining aniq chegaralari ishlab chiqilmagan. Torroq ma’noda bu tushuncha bilan yangi, o‘ziga xos betakror tizimlarni yaratishni, pedagogik innovatsiyalar jarayonlarini bog‘lash mumkin.

Kengroq ma’noda o‘qituvchining ijodiy faoliyati – pedagogik jarayonda muntazam ravishda kelib chiqib turadigan muammolarni anglab yetish va hal etishga qaratilgan faoliyat sifatida ko‘riladi. Bunday yondoshuv ijodni har bir o‘qituvchi faoliyatining zaruriy tarkibiy qismi deb hisoblash imkonini beradi, albatta, bunda ijod har bir darsda, bolalar bilan ishlashning turli paytlarida, darsga tayyorgarlik jarayonlarida va hokazoda turlicha tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli V.I. Zagvyazinskiy: «Ijod – pedagogik jarayonning zaruriy sharti,

o'qituvchi faoliyatining obyektiv kasbiy zaruriyati» - deb ta'kidlagan. Pedagogning ijodiy faoliyati bolalar bilan muloqat qilishda berilgan pedagogik individuallik uchun pedagog tomonidan eng maqbul, uzviy va noan'anaviy pedagogik qarorlarni ishlab chiqish talab etiladigan, o'zgarib turadigan vaziyatlarda son-sanoqsiz o'quv-tarbiyaviy vazifalarni doimiy ravishda hal etib borishga qaratilgan faoliyat deb belgilanadi. Pedagogik ijodkorlikning o'ziga xosligi shundaki, faqatgina pedagogik vazifani hal etish jarayonining o'zigina ijodiy xarakterga ega bo'lib qolmasdan, balki, bu qarorning ijodiy jarayon sifatida odamlar bilan muloqatda amalga oshirilishi ko'p jihatdan pedagogning individual-tipologik xususiyatlariga tayanadi. Pedagogik ijodkorlikning inson samarali faoliyatining hech bir boshqa xususiyati bilan tenglashtirib bo'lmaydigan xususiyati shundan iboratki, bunda o'qituvchi har doim jonli «inson materiali» bilan ijod qiladi. Shu sababli A.E.Shteynmetsning nuqtai nazari e'tiborga sazovor: «Pedagogik faoliyatning xususiyatlarini, uning bola, o'quvchi, ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishi va o'z-o'zini takomillashtirishi uchun sharoit yaratishdan iborat oliy, oxirgi maqsadi bilan aniqlash mumkin. Bu yerda ijodiy pedagogik faoliyatni boshqa samarali faoliyatlardan ajratish imkonini beradigan asosiy mezon mavjud. Shunchalik insonparvar va yuksak bo'lgan pedagogik faoliyatning pirovard maqsadiga erishish faqatgina o'qituvchi va o'quvchilarning yoki bu fan mazmunini o'zdashtirishda hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlik xarakteridagi faoliyatlarini tashkil etish orqaligina amalga oshirilishi mumkin» Bu esa pedagogik ijodkorlikning insonning ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan ichki faoliyat mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'gan axloqiy jihatlarini birinchi qatorga olib chiqadi.

Ijodkor shaxs uchun eng kamida ikkita xususiyat xos: yaratuvchanlikka yo'nalganlik va faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos uslubi. Inson hayot faoliyatining turli jabhalarida amalga oshiriluvchi yaratuvchanlik faoliyati shaxsning atrof olam, jamiyat bilan chambarchas aloqalarini talab etadi va shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarga egaligi, ehtiyojlarini o'z ichiga olgan maqsadga intiluvchanlik kabi barqaror sifatlari bilan bog'liq.

Umuman, pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Kamenskiy hissa qo'shdi. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Boshlang'ich ta'lim Shvetsariya pedagogi I.G.Pestolotsi asarlarida ishlab chiqilgan. Bulardan tashqari rus didaktikasining atoqli namoyondasi K.D.Ushinskiy bo'lgan. U o'qitish masalalarini chuqur psixologik asosini yaratdi. O'zbek xalqi orasida ham H.H.Niyoziy, A.Avloniy kabi pedagoglar yetishib chiqdi.

Ular ham o'zbek xalq maktablarini ochish, o'quvchilarga darsliklar yozish kabi ishlarni davom ettirdilar.

Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak, dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazmali qurollardan, texnik vositalardan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan, dars davomida foydalanishi lozim.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni jalb qila olishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. Tilni o'rganish o'quvchilar zehni, aqli, ongi, madaniy darajasini oshiradi va tilni puxta o'rganmay turib, boshqa fanlarni o'zlashtirish qiyin. Chunki har bir predmetni ifodalash, bolaga o'rgatish hamisha so'zlar vositasida amalga oshadi.

O'yin orqali bola faoliyati mukammallashadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi, O'yin jarayonida, qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi, turli o'simlik va hayvonot o'zgarishlarni anglaydilar.

O'yin – bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yinga aylantirib qo'ymaslik lozim.

Bolaning haqiqiy ijodiy izlanuvchan sofdil va adolatli mard va olijanob raxmdil, o'z Vatanning vatanparvar, mehnatsevar va yaratuvchi bo'lishi uning boshlang'ich ta'lim bosqichida egallagan bilimi va tarbiyasiga bog'liq. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim oldida turgan vazifa juda jiddiy ulkan ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim bolaning o'z hayotini jamiyat manfaati bilan bog'lab borishi, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o'tishi, oldiga qo'yilgan hayotiy maqsadlari esa jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo'lishiga erishmog'i kerak. Buning uchun boshlang'ich ta'lim pedagogik jamoasi bolalarga bilim berish bilan birga murakkab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishlari lozim. Boshlang'ich ta'lim mazmunida bolalarni mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlashga zarur bo'lgan hamkorlik, samimiyat va o'zaro yordam natijasida yosh avlodni tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Boshlang'ich ta'lim shaxsning shakllanishida u o'sib voyaga yetadigan shart-sharoitlarida muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodni ijodiy izlanuvchan, vatanparvar shaxs bo'lib shakllanishida boshlang'ich ta'lim mas'uliyati alohida ajralib turadi. Jamiyatimiz tuzumi ma'naviy-siyosiy birligini ijtimoiy tarbiyaning maqsadlariga to'la mos ekanligini belgilaydi.

Bolalar faoliyatini oqilona tashkil eta bilgan o'qituvchi katta yutuqlarga erishishi mumkin. Buning uchun o'qituvchilar tarbiyaning mohiyatini vazifasini, avvalo o'zlari yaxshi tushungan holda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olishni bilishlari zarur.

Mustaqil o'lka yoshlarining har tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning, qolaversa, milliy jismoniy tarbiya usullarining

ahamiyati juda katta. O'lkamiz tarixiga nazar tashlasak, qadim zamonlarda milliy sport, harakatli o'yin va ko'ngil ochishlardan ota-bobolarimiz, ona-momolarimiz bayramlarda, sayillarda keng foydalanishgan. Navro'z, hosil bayramlari, Ramazon xayiti, Qurbon hayit va boshqa bayramlarda uloq chopish, kurash, ko'pkari kabi xilma-xil o'yinlar, ko'ngil ochishlar o'tkazilgan.

Milliy jismoniy mashqlar sport va harakatli o'yinlarning xilma-xilligi, ulardan o'kuv-tarbiya jarayonining juda ko'p sohalarida ko'llash imkonini beradi. Yakkasaroy tumanidagi 118-o'rta umumta'lim maktabining 1- «V» sinfida pedagogik amaliyot davrida shuni o'rganib oldimki, sinflarda har xil harakatli o'yinlar uyushtirish, maxsus guruhlarda qiziqarli va bajarilishi oson bo'lgan mashqlar tashkil etish o'kuvchilar harakat sifatlarini to'g'ri shakllantirishga katta yordam berar ekan.

Xulosa kilib aytganda, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy urf-odatlar, ajoyib an'analari bo'lgan. Hattoki, yoshlarning barkamol shakllanishlari uchun xalqimiz qadim-qadimdan jiddiy e'tibor berib kelgan. O'sha davrdanoq milliy xalq o'yinlari keng rivojlangan. Bu o'yinlar yosh avlodning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lib ulg'ayishida juda qo'l kelgan.

O'zbek xalq o'yinlarini hozirgi kunda ham inson shaxsini tarbiyalashdagi o'rni bekiyosdir. O'zbek xalq o'yinlari o'zining turli yosh, jins, shahar va qishloqqa mo'ljallangan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Biroq, bu jihatlarning kam yoritilganligi va kam o'rganilganligi sababli o'zbek xalq o'yinlariga har tomonlama tasnif berish o'ta mushkul. Shunga qaramasdan, ularni nazoratdan o'tkazish va o'rganish o'yinlarni shartli ravishda quyidagidek turlarga bo'lib chiqish imkoniyatini beradi:

- 1) turli yoshdagilar o'yinlari (go'daklik, bolalik, o'spirinlik va x.kazolar);
- 2) turli jinsdagi odamlar o'yinlari (o'g'il bolalar, qiz bolalar, erkaklar va ayollar);
- 3) mavsumiy o'yinlar (baxorgi, yozgi, kuzgi, qishki);
- 4) turli ifoda vositalaridan foydalanishga asoslangan o'yinlar (so'z, kuy, qo'shiq, raks, pantomima, syujetli, sahna, turli xususiyatli va xokazolar).

So'nggi tur o'yin turli ifoda va sitatalardan foydalangan xolda amalga oshiriladi. Masalan, so'z, qo'shiq, raqs, harakat, sahna tomoshalari, shuningdek, qilich, kaltak, toshchalar, yong'oqchalar kabi oddiy narsalar asosiy ifoda o'xshashligi yoki narsalar o'yinning xarakterini, shaklini, mazmunini va rolini belgilaydi. Deylik, o'yinda asosiy vosita so'z bo'lsa, so'z o'yini, agar harakat, tezlik, kurash bo'lsa, bu harakat – musobaqa o'yini bo'ladi. Agarda o'yinda syujet, badiiy timsol vositasida muayyan xayotiy hodisa o'z aksini topsa, bu sahna o'yini, asar asosiy rol ko'shiq jurnavozlikka berilsa, **bu qo'shiq o'yini yoki jo'navozlikdagi qo'shiq o'yini bo'ladi.**

U yoki bu vositadan foydalanishga asoslangan o'yinlar sof xolda uchramaydi, boshka o'yinlar yoki turkumlar bilan chatishib ketadi. Zero, ularda turli yoshdagi, jinsdagi odamlar turli fasllarda o'ynaydilar. Shu bois bir turkumda nishonlanadigan o'yinlar boshqasida takrorlanishi mumkin.

Turli yoshdagi odamlar guruhiga moslangan va hayotning ma'lum bosqichida o'ynaladigan o'yinlar avloddan-avlodga o'tib kelgan. Yoshi o'tinkirab qolguncha odamlar bamisoli xalq o'yinlari «maktab»ini o'tgan, bunda har bir sinfda u yoki bu yoshga tegishli o'yinlardan foydalanganlar. Har bir yosh xususiyati o'yinlarning mohiyati va mazmunini belgilagan. Masalan, yosh bolalar o'rtasida o'yinchoq va ko'g'irchoqlar bilan bog'lik o'yinlar, oraliq yoshdagi bolalar o'rtasida – syujetli taqlid o'yinlari keng tarqalgan. «Xakalam-xakalam», «Kelin-kuyov», «Kuvlashmachoq» kabi o'yinlar bugungi kunda xam bolalar tomonidan sevib o'ynaladi.

O'yinlar bolalar va yoshlarga nima beradi?

O'yin bolalarning, xususan, 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy mashguloti xisoblanadi, keyinchalik o'qish va mehnatga almashadi. O'yinlar bolalar uchun hayotga, kelajakdagi vokea-xodisalarga o'ziga xos tayyorgarlik maktabi hisoblanadi. Ular bolalarni nafaqat jisman, balki aqlan o'stirib, ongini boyitadi, bolalar xayolotini uyg'otadi, xotirasini charxlab, irodani mustahkamlaydi. O'yinlar jarayonida bola deyarli bilimlarni egallaydi, shaxs kamolotidagi zarur malakani oshiradi. O'yinlar kelajakdagi katta hayot

bo'sag'asidagi tayyorgarlik bo'lib xizmat qilgan. «Agar bola o'yinni vijdonan o'ynasa, xayotda xam vijdonan yashaydi» deb bejiz aytishmaydi-da. Xullas, o'yinlar bolalarda ijodiy faollik, tashabbus, jamoatchilik, tashkilotchilik o'kuvi va malakasini rivojlantirishning samarali vositasidir.

O'yinlar inson xayotida shunday ahamiyat kasb etadiki, ularga qarab inson shaxsiyati, xarakteri manfaatlari, qizikishlari, qobiliyatlari haqida fikr yuritish mumkin. O'zbeklar farzandlarida bolaligidanoq baxodirlik, harbiylik, jangovarlik malakalarini shakllantirganlar.

Xalq dostoni «Alpomish»dagi sevimli bosh qahramon Hakimbek haqidagi satrlar shundan dalolat beradi. Demak, o'yinlar inson shaxsini kamol toptirishda asosiy vosita hisoblanadi. O'yin bola uchun birinchi maktab. Bobolar va buvilarning qattiqqo'l ota-onalarga «Bolalarning o'yiniga halaqit bermanglar!» deb tanbex berishlari bejiz emasda. Milliy o'yinlarimizda tez harakatli va aqliy o'yinlar mavjud.

Ushbu fikrlarning xulosasi o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy vaziyatlarning keskinlashayotgan bir sharoitida o'quvchilarning faoliyatida o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'yinlardan foydalanish ko'nikma malakalarni shakllantirish muhim jihatlaridan sanaladi.

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda balki, jahon hamjamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat; diniy ekstremizm, giyohvand singari salbiy illatlarning avj olayotganligi ta'lim sohasida muhim tadbirlarni joriy etishni, shu negizda o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, ijodiy faoliyat sifatlariga ega bo'lgan, salbiy illatlarga qarshi faol kurasha oladigan etib tarbiyalash davr talabidir.

1.2. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning pedagogik mohiyati.

Ta'lim mazmunini takomillashishi bilan o'qish jarayoni talab qiladigan o'quvchilarning xulq-atvor va hatti-harakat shakllari ham rivojlanib boradi. Bu esa o'quv jarayonida ta'lim va tarbiya uzviyligidan dalolat beradi. O'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoiyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi. Demak didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega.

O'yin inson hayotida mehnat qilish va ta'lim olish kabi muhim faoliyat qatoriga kiradi. Aniqlanishicha, «o'yin - bu ayrim holatlardagi vaziyatlarni, jamiyat tajribalarini o'rganishda ishlatiladigan va keyinchalik o'z odob axloqini mukammallashtirishda ishlatiladi».

Inson amaliyotida o'yin quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- a) Hordiq chiqaruvchi: (o'yindan bahra olish, qiziqish uyg'otish)
- b) Kommunikativ: dialektik muloqotni o'rganish.
- v) O'zini biror narsaga qodir ekanligini ko'rsatish.
- g) O'yin bilan mashg'ul bo'lish (yoki o'yin orqali ovunish) turli xil qiyinchiliklarni o'yin orqali yengish.
- d) Diagnostik: o'yin davomida ba'zi bir kamchiliklarni aniqlash.
- ye) Millatlararo yakdil bo'lish: hamma millatlar uchun bir xil bo'lgan sotsial madaniy boyligimiz (me'rosimiz)ni o'rganish.
- j) Ijtimoiylashtirish: umuminsoniy ahloq konunlarini o'rganish. Ko'pchilik o'yinlarga 4 ta belgi xosdir:

- a) Bolaning xohishiga karab istalgan o'yinni tanlash. O'yin jarayonidan bahramand bo'lish.
- b) Ijodiy fikr yuritish.
- v) Ruhiy ko'tarinkilik: musobaqalashish, raqibini yengish.
- g) O'yin mazmunini, mohiyatini belgilovchi qonun va qoidalarning mavjudligi.

O'yin tarkibiga o'yin rejasini tuzish, amalga oshirish, maqsadga erishish va natijani tahlil qilish ham kiradi. O'yinning ahamiyati yuqori ekanligini hisobga olgan holda shaxs o'zini subyekt deb hisoblashi kerak.

O'yin tarkibiga jarayon sifatida quyidagilar kiradi:

- a) O'yinda ishtirok etuvchilar taqsimlab olgan rollari.
- b) Rollarning mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun o'yin davomida qilinadigan harakatlar.
- v) O'yin davomida ishlatiladigan predmetlar, narsalar o'rniga ularning o'rnini bosa oladigan shartli predmet yoki narsalardan foydalanish.
- g) O'yinni mazmunini (mohiyati) - o'yin davomida ko'rsatiladigan shartli voqe'lik.

Tarbiyaning bir uslubi sifatida o'yindan juda qadimdan beri foydalanishgan. Bu uslub xalq ta'limida, maktabgacha va maktabdan tashqari bolalar muassasalarida keng ko'lamda qo'llaniladi. O'qish jarayonini o'yin o'tkazish orqali faollashtirish mumkin:

a) Mustaqil jarayon sifatida biron mavzu yoki o'quv predmetining bir bo'limi uchun.

b) Keng ko'lamdagi jarayonning bir elementi sifatida.

v) Dars sifatida yoki o'quv darsining bir qismi (kirish, tushuntirish, mustahkamlash)

g) Sinfdan tashqari ishlarning texnologik jarayonlari sifatida. «Pedagogik o'yinlarning texnologik jarayonlari» tushunchasi o'z ichiga pedagogik o'yinlarning ko'p uslubini oladi.

Pedagogik o'yin o'zining - aniq maqsadi va shunga yarasha natijasi va uning yo'nalishi bilan ajralib turadi.

O'yin uslublarini dars davomida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) O'quvchilarning oldiga didaktik maqsad o'yinning sharti sifatida qo'yiladi.

b) O'kish faoliyati o'yinning shartlari asosida olib boriladi.

v) O'quv materialining mahsuloti sifatida ko'llaniladi.

g) O'quv faoliyatiga didaktik masalani o'yinga aylantiruvchi musobaqa elementi kiritiladi.

Didaktik topshiriqning yaxshi bajarilishi o'yin natijasiga bog'liqdir.

Pedagogik o'yinlar tasnifi.

O'yin faoliyatiga ko'ra:

Pedagogik jarayonning harakteriga ko'ra:

O'yin uslubiga ko'ra:

O'quv predmetiga ko'ra va

O'yin muhitiga ko'ra pedagogik o'yinlar tasniflanadi.

Maqsad turlari va ko‘rinishlari

a) Didaktik: dunyoqarashni kengaytirish, uni amaliyotda qo‘llash, bilim olish doirasini kengaytirish, mehnat va ta‘lim olishni rivojlantirish.

b) Tarbiyalovchi: mustaqil bo‘lishni tarbiyalash, irodani, axloqni, estetik axloqni va dunyokarashni shaqllantirish, hamkorlikda, kollektivda (jamoada) birga harakat qilishni tarbiyalash.

v) Rivojlantiruvchi: diqqatni, xotirani, nutqni, fikrlashni rivojlantirish, taqqoslashni o‘rganish, analoglarni topish, ijodiy qobiliyatni fikr yuritishni, (tasavvurni rivojlantirish) (voobrajeniy), eng optimal qarorlarni qabul qilish va o‘quv ta‘lim faoliyatini rivojlantirish.

g) Sotsial nuqtai-nazardan: jamiyatning axloq kodeksiga, ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zaro muloqot va psixoterapiyaga o‘rgatish.

O‘yin jarayonlarining konseptual asoslari

a) o‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini ko‘rsata bilishi, biron ishni (o‘yinni) qila olishga ishonchni, o‘z-o‘zini idora qila olishi kabi fundamental asoslarga yondoshadi.

b) o‘yin - bu bolaning ichki dunyosidagi kenglik, bo‘shliq (L.S. Vigotskiy)

v) O‘yinga qo‘shila olish qobiliyati inson yoshiga bogliq emas, lekin turli yoshdagi odamlar uchun o‘yin jarayoni har xildir.

g) bolalar o‘yinlarining mazmuni soddadan murakkabga qarab (misol uchun: predmetli o‘yindan odamlar orasidagi munosabatga yoki asosiy mazmuni jamiyat qonun qoidalariga bo‘ysunish kabi o‘yinlar) rivojlanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi davrda o‘yin texnologiyalari

Rolli o‘yinlarga bola uch yoshlarda ko‘nikma hosil qiladi. Bu yoshda bolada o‘z dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari shakllanadi va bu narsa bolaga kollektiv o‘yinlarga qo‘shilib o‘ynashga va o‘zini ifoda etishga yordam beradi.

Bolaning bu yoshda o‘yin qonun- qoidalarini o‘zlashtirishi jamiyat uchun foydali bo‘lgan ishlarni o‘rgatishga, bajarishga yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi davrda o‘yin texnologiyalari

Kichik maktab yoshidagi bolalarga obrazga oson kirish, o‘zini yorqin ifoda qilish kabi xislatlar xosdir. Ular guruhlariga bo‘linib mustaqil o‘yin o‘ynashga qodirlar. O‘quv-ta’lim modelida muammoli vaziyatlar o‘yin davomida shaqllanadi va kuzatiladi. Bolalar o‘yin qoidalariga qarab harakat qilishadi, o‘qituvchining pozitsiyasi ham shakllanadi. Bu tashkilotchi - uning yordamchisi - o‘yin qatnashchisi oralaridagi tenglik bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘yin natijalari ikki jihatdan - o‘yin sifatida va o‘kuv o‘yini sifatida qabul qilinadi. Ushbu o‘yin modelida bolalarning yakuniy xulosalariga: o‘quvchilarning birgalikda o‘yinining borishi va uning natijasi, o‘yin modeli va rkal haqiqat orasidagi nisbat va o‘quv o‘yini davomidagi o‘zaro munosabat asosiy rol ni o‘ynaydi.

Didaktik o‘yinlarning natijasi-birinchidan, ularning doimo (sistematik) o‘tkazilib turilishiga, ikkinchidan, bu o‘yinlarning oddiy didaktik mashqlarga nisbatan bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishiga bog‘liqdir.

O‘yin texnologiyalarini alohida o‘yin va elementlardan tuzish har bir boshlang‘ich maktab o‘qituvchining ishidir.

O‘rta va katta yoshdagi maktab davrida o‘yin jarayonlari

O‘tish davridagi bolalarda o‘zining dunyosi, kattaroq bo‘lib ko‘rinish, jamiyat oldida o‘zini kamol toptirish, nutq orqali o‘zligini namoyon etish kabi istaqlar yorqin namoyon bo‘ladi.

Ishbilarmon o‘yinlar

Ishbilarmon o‘yinlardan kompleks masalalarni hal qilishda, yangi materialni o‘zlashtirishda va uni mustahkamlashda foydalaniladi. Bunday o‘yinlar ijodiy

qobiliyatlarni o'sishida yordam beradi. Umuman olganda, o'quv materialini o'quvchilar tomonidan turli pozitsiyalardan qarab yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. O'yinlarning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: o'xshatish, imitatsion, tezkor, rolli o'yinlar, teatr, psixo va sotsiodrammalar.

O'xshatma o'yinlar

Bu o'yinlarda biror tashkilot yoki uning bo'limidagi, odamlarning konkret faoliyat rejalarini tahlil qilish, majlis o'tkazish kabi vaziyatlar o'ynaladi va bu vaziyatlarda sinf hodisa sodir etilayotgan joyga (rahbarning kabineti, majlislar zali) o'xshatiladi. O'yin ssenariysi o'z ichiga voqea syujetidan tashqari o'xshash jarayonlar va obyektlarning tarkibiy to'zilishini ko'rsatishni ham oladi.

Tezkor o'yinlar.

Bu o'yinlar maxsus masalalarni hal qilishda, masalan: insho yozish uslubida, biron masalani hal qilishda yordam beradi. Bu o'yinlar haqiqatga yaqin o'xshash sharoitlarda o'tkaziladi.

Rollarni ijro etish.

Bu o'yinlarda muayyan shaxsning harakatlari, qiliqlari, vazifasi ko'zatiladi va rol orqali ifoda etiladi. O'yin davomida o'quvchilar tomonidan rollar taqsimlanib pyesa ko'rinishi amalga oshiriladi.

Ishbilarmon teatr.

Bu o'yinda biror holatda insonning hatti harakatlari ifoda qilinadi. Bu yerda o'quvchi o'zining tajribasidan foydalanib obrazga kirishi, uning xatti-harakatlarini tushunish, holatini to'g'ri baholab o'zini to'g'ri tuta bilishi lozim. Bundan tashqari, ushbu sahnalarda o'quvchi o'z hatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi, boshqa ishtirokchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ular bilan muloqotda bo'lishi kerak. Ushbu sahna uchun, konkret holat uchun ssenariy yoziladi va o'yin shu ssenariy asosida olib boriladi.

Kasbni rivojlantiradigan o'yinlar

Har xil o'yinlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, Oliy o'quv yurtgacha va Oliy o'quv yurtning boshlang'ich pallalarida quyidagi o'yinlarni qo'llash to'g'ri bo'ladi: - representativ, professional faoliyatga bog'liq holatlar:

- variantiv, uning asosiy vazifasiga mazkur faoliyatga variant tanlash kiradi; ya'ni - muamolilik, o'qituvchining ish faoliyatini o'rganishga mo'ljallangan hamda asosiy masalarni yechishga qaratilgan;

- moslashuv, ma'lum bir masalani yechish usuli qo'llaniladi, lekin bu usul yakuniy hisobda konkret pedagogik faoliyatga moslashishi kerak bo'ladi;

- evristik, professional masalaga mustakil, originallik bilan yangicha yondoshish; masalan, dars jarayonining metodik tahlili; alternativ reja tuzish; bunday izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'yin modellashtirilishda o'quv faoliyati ijodiy o'quv faoliyatiga o'tadi. Uyin modellashtirilishi talabanning fikrlash doirasini kengaytiradi va kelgusi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

«Qaror kilamiz — baho bering» o'yini.

O'yinda parallel guruhlar qatnashadi. Birinchi guruhda o'qituvchi muammoli holatni yuzaga keltiradi, o'quvchilar o'z yechim variantlarini taqlif etadilar. Taqliflar magnitafonga yozib olinadi. Yozish jarayonida o'qituvchi takliflarni o'rganib chiqadi. Masalan yechimi munozara yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinchi guruhda ham shunday muammo ko'tariladi. Va o'quvchilar bu masalani yechishga o'rinadilar. O'qituvchi ularga: «Birinchi guruhdagilar bu muammoni yechishga uringandilar, qanchalik to'g'ri yechganlarini sizlar tahlil qilishingiz kerak, chunki bugun sizlar hakam vazifasini o'tayabsizlar», deydi. Ular magnitafonga yozilgan fikrlarni tahlil qiladilar, va qaror tasdiqlanadi. Maqsad: o'quvchilarning mo'ljalini, aktivligini va fikrlash doirasini oshirish. Didaktik o'yinlar davomida, o'quv jarayonining tuzilishi quyidagichadir: muammolik vaziyat yaratish, o'yinning yo'nalishini tahlil qilish baholarni jamlash va o'quvchini baholash. Bo'lg'usi o'qituvchilarning rivojlanishida imitatsion — modellashtirish o'yinlari katta rol o'ynaydi.

Bunday o'yinlarda pedagogik holatlar vujudga keltiriladi. Bunday o'yinlar pedagogik jarayonida ko'p qo'llaniladi. Bu o'yinlarni teatrlashtirish mumkin, bunda pedagoglar ham rollarni o'ynab tasavvurini ishga solishi mumki. Bu o'yinlar konkret bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi.

I bob bo'yicha xulosa.

O'yin jarayonida o'quvchilar qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rganib boradi.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi, turli o'simlik va hayvonot o'zgarishlarni anglay olishlari ko'rsatib o'tildi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash tadqiq qilish, xisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va turlarini o'rganish rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Ushbu fikrlarning xulosasi o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy vaziyatlarning keskinlashayotgan bir sharoitida o'quvchilarning faoliyatida o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'yinlardan foydalanish ko'nikma malakalarni shakllantirish muhim jihatlaridan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy urf-odatlar, ajoyib an'analari bo'lgan. Hattoki, yoshlarning barkamol shakllanishlari uchun xalqimiz qadim-qadimdan jiddiy e'tibor berib kelgan. O'sha davrdanoq milliy xalq o'yinlari keng rivojlangan. Bu o'yinlar yosh avlodning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lib ulg'ayishida juda qo'l kelganligi yoritildi.

2. bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin mashg‘ulotlarini tizimlashtirishning shakl va usullari.

2.1. O‘yin mashg‘ulotlarini tizimlashtirishdan foydalanish texnologiyasi.

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta’limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o‘yin usullari cheksiz, takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz «Jimjitlik» o‘yining 5–7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik, «Nima o‘zgardi?» turidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tkazildi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o‘yinlar o‘zining shakli jihatidan, asosan, bog‘chada o‘ynaladigan ijodiy o‘yinlardan ham, o‘qituvchi o‘zi hikoya qilib berish yo‘li bilan tushuntiradigan va o‘quvchilarni birma-bir so‘rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o‘yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g‘olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o‘yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning o‘ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yin qoidalarini o‘zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o‘yin vaqtida zo‘r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10 nafar, «Do'koncha»da 8–12 nafar bola, «Narvoncha»da esa hamma o'quvchilar masala yechadilar.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar bilan qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Yeng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'tkazilish jarayonida bolalarning o'zlarini mustaqil boshqara olishda o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Yeng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish» kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10–15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini

ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarini o'zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvon-cha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda, bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo'ymaydilar.

«Do'koncha» turidagi o'yinda o'yinchoqlar «sotib olish»ning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab (qo'shib) chiqishga, necha pul «qaytarib» berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi. Bolalar «Qiziqarli kvadratlar» o'yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o'quvchi-larga bir yo'la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, erishilishi mumkin bo'lgan natijalar to'g'risida o'ylab ko'rishga va noto'g'ri hisobdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi tez, zo'r

qiziqish va aqliy faoliyat bilan o'tadi. Katta, chiroyli to'pni ko'rgan o'quvchilarda tortinchoqlik yo'qola borib, dadillik bilan sonlarni o'ylab topishga kirishadilar. O'yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to'g'ri tushuncha paydo bo'ladi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini turli xil turishlarida yordam beradi. «Do'koncha», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog'chasida», «Mehmondorchilikda» kabi o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar, ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. «Bo'g'inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar va o'zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasavvur qilish maqsadida biz ushbu ishimizda ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berishga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ta'lim – o'quvchilarga ko'nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir.

Ta'lim jarayoni – bolalar xotirasining boyishi, ular nutqi va tafakkurining o'sish, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo'ladigan vaziyatdir.

O'yin – bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi.

O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 – soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi.

Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari : intellektual (aqliy) va xarakatli xamda aqliy aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyatini qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy rol, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Xozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar aloxida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash tadqiq qilish, xisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa

chiqarish,mustaqil qaror qabul qilish,gurux yoki jamoa tarkibida ishlash,axloq odob o'rgatish,nutq o'stirish,til o'rgatish,yangi bilimlar o'rgatish va turlarini o'rganish rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib,ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra,mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv,didaktik,sport va xarbiy o'yinlarga ajratiladi.Bularning orasida didaktik o'yinlar ajratiladi.Ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega.Uyinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli xisoblanadi.Bu esa pedagog va psixologik olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqodlar olib borilishiga asos bo'ldi.

Natijada,oldingi asrning 60-yillari boshtdan AQShda , so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshladi.Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy,samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi – aqliy xujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F.Osborn qo'llagan.Bu usulni g'oyalar banki deb ham nomlangan.U muammolarni quyidagichdda yechishga asosalanadi:

- muammoli vaziyat yaratish:
- g'oyalarni shakllantirish:
- eng yaxshi g'oyalarni tekshirish,baxolash va tanlash.

Gurux ishtirokchilardan muammoni aniqlash va uni yechish bo'yicha iloji boricha ko'p,ba'zan,batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy xujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning maxorati xamda o'quvchilarning tayyorliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil xisoblanadi.

II bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishning shakl va usullari.

2.1. O'yin mashg'ulotlarini tizimlashtirishdan foydalanish texnologiyasi.

Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yin usullari cheksiz, takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5–7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik, «Nima o'zgardi?» turidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish

maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10 nafar, «Do'koncha»da 8–12 nafar bola, «Narvoncha»da esa hamma o'quvchilar masala yechadilar.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar bilan qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Yeng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'tkazilish jarayonida bolalarning o'zlarini mustaqil boshqara olishda o'rganishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni

tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Yeng yaxshi hisobchi», «Ko'rganni eslab qolish» kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10–15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi.

Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. «Kim turgan saf yaxshiroq», «Zanjircha», «Narvon-cha», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin» singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda, bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, undan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo'ymaydilar.

«Do'koncha» turidagi o'yinda o'yinchoqlar «sotib olish»ning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab (qo'shib) chiqishga, necha pul «qaytarib» berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi. Bolalar «Qiziqarli kvadratlar» o'yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o'quvchi-larga bir yo'la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, erishilishi mumkin bo'lgan natijalar to'g'risida o'ylab ko'rishga va noto'g'ri hisobdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi tez, zo'r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o'tadi. Katta, chiroyli to'pni ko'rgan o'quvchilarda tortinchoqlik yo'qola borib, dadillik bilan sonlarni o'ylab topishga kirishadilar. O'yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to'g'ri tushuncha paydo bo'ladi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini turli xil turishlarida yordam beradi. «Do'koncha», «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog'chasida», «Mehmondorchilikda» kabi o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib oladilar, ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Sinfдан tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. «Bo'g'inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar va


o'zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

«Gul sayli» o'yini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirish.

O'yin topshirig'i: Topshiriqlarning fasllarga xos holda bajarilishini mustahkamlash.

O'yin bayoni: Gul sayli o'yini uchun magnit doskasi, yozuv doskasi va qalin qog'ozdan yasalgan gullar tayyorlanadi. Gullar sinf o'quvchilarining soniga teng bo'ladi. Gulning orqasiga magnit plastinkasi yelimlanadi va qora qalam bilan misol yoziladi. Chunki, oddiy qalamda yozilgan misolni o'chirib, keyingi darslarga yangisini yozish mumkin.



O'qituvchi o'yinning sharti va qoidasi bilan tanishtiradi. Gullar magnit doskasiga batarib yopishtiriladi. Bunday ko'rinish gulzorni ifodalaydi. O'qituvchi o'quvchilarga guruhlariga bo'linib, gul terishni aytadi. O'yinda eng ko'p gul tergan guruh go'lib bo'ladi. Gul terish uchun har qaysi guruhdan tartib bilan bittadan o'quvchi chiqib, magnit

doskasidagi gullardan bittasini iladi va orqasiga yozib qo'yilgan misolni dars doskasida yechadi.

Qilgan o'quvchilar misollarni daftarlarida mustaqil bajaradilar. Misolni noto'g'ri bajargan o'quvchi gulni uzishda sindirib qo'yan hisoblanadi. Noto'g'ri yechilgan misolni guruhning navbatdagi o'quvchisi chiqib to'g'rilaydi. O'qituvchi bu o'yin orqali o'quvchilarga tabiat sirlari haqida tasavvur beradi.

Milliy dasturni ruyobga chiqarishning yuqori sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash, ta'lim tizimining mazmunini Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirib borilmoqda.

Barcha o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini o'quv jarayonida qo'llab va o'quv yili yakunida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar shu standartlarga mos kelishini monitoring ishlarini olib borishni qulaylashtiradi.

Didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish ta'lim mazmunini tashkil etadi. Didaktik tafakkur – bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan to'plami, usul va uslublari, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori samadorligi va sifatini oshirishga erishiladi.

O'quvchilar faolligini oshirish, mustaqil ishlash, fanlarga qiziqishlari ortib boradi. Darslar samaradorligini oshirib boradi. Oqimga qarab suzish yaxshi, qo'l-oyog'ingizni qimirlatmaysiz, chunki siz uchun bu ishni sokin oqimning o'zi bajarib qo'yadi. Oddiy darslarda hech qanday savollarga javob bermaysiz, siz uchun barcha savollarga javob beruvchi a'lochi o'quvchi javob beradi. Eng oddiy dars o'tishga odatlangan ko'pchilik o'qituvchilar 60 % i bunday darslarga sevimli mashg'ulot sifatida qaraydilar. Bu holat yaxshimi yoki yomon insonlar doimo osoyishta, tinch, muammolarsiz hayotga intilib kelishgan. Odatiy dars – bu mehyoriy va barqaror hayotni bilish uchun sinalgan vaqt garovi bo'lib, qaysidir ma'noda yaxshidir.

Bugun barcha muammolar bitta keskin nuqtada – zamonaviy maktablardadir. Unga jamiyatning kelajagi bog'liq, aynan dars jarayonida ong shakllana boshlaydi.

Dars – bu nafaqat o'quv jarayonining asosiy forma, shu bilan birga, hayotimiz bilan chambarchas bog'liq ijodiy ta'limdir.

Ta'limga ijodiy yondashmas ekanmiz, unda samara bo'lmaydi, samarasiz o'tgan dars behuda o'tgan vaqtdir. Standart darsning vazifasi o'nlab yillar davomida o'zgarmay keldi. Shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda asosiy vazifa idrok faolligi muhim bo'lib qolaveradi.

Bizning pedagogikamizning yangi maqsadi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishda qulay bo'lgan oddiy vositalarda qiziqish idrokoni shakllantirishdir. Buning negizi – o'quvchilar emas o'qituvchi faolligidir. O'qituvchi darsda asosiy

va yagona harakatdagi shaxs bo'lib qolaveradi. Shunday qilib, pedagogik ta'sir ostida bitiruvchilar yangi avlodi mustaqil hayotga tayyor bo'lmagan holda kirib boradi. Bizning davrimizda talab bosqichi o'quvchilar ta'lim jarayonida obyekt sifatida emas, subobyekt sifatida bo'lishi kerak. Dars jarayonida subobyektni tayyorlash, uning ijodiy faolligini ta'minlash muhim masalaridan biridir. Lekin buning uchun o'qituvchi o'z faoliyatini va o'quvchilarga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirish kerak. Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini harakatlanuvchi oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy mahoratini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijalarni kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi. Pedagogik texnologiya – bu jarayonlar, vositalar, uslublar majmuasidan iborat bo'lib, o'quvchilarda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish uchun pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq oshiradi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion texnologiyalar o'qitishning zamonaviy shakllarini yangi mazmun bilan boyitmoqda. Binobarin, ilg'or pedagogik texnologiyalarning nazariy – amaliy jihatlarini anglash, ta'lim jarayoniga ularni keng tadbiiq etish zamon talabidir. Pedagogik texnologiya bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlari aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya bir necha turlarga bo'linishi mumkin;

- umumpedagogik texnologiya;
- xususiy predmetli texnologiya;
- mahalliy pedagogik texnologiya – har biri ma'lum bir pedagogik tizimga

asoslanadi. Uzluksiz ta'lim tizimidagi islohatlarning borishida jiddiy muammolardan biri quyidagicha davlat ham, har ota-ona farzandlarining zamonaviy bilim egallashlarini talab etadi.

“O'qitish san'atdir”. San'at bo'lganda murakkab, nozik, ko'p qirrali va o'ziga xos san'atdir.

O'qitishni san'at deb hisoblar ekanmiz, uni hamma ham egallay olmaydi deb o'ylash yaramaydi. "O'qituvchi bo'lib tug'ilish kerak" degan hikmatli so'zni pedagogika faoliyati o'qituvchidan har tomonlama bilimlarni, o'quvchilarga ta'lim va

tarbiya berishda yuksak natijalarga erishmoq uchun qunt bilan ishlashni qiladi, degan ma'noda ham tushunish kerak.

O'qitish o'z ichiga – o'qitish faoliyatini, berishni va o'quvchi faoliyatini oladi. Muallim rahbarligida bolalar ishga jalb qilinadilar. Ba'zi bolalar xato qiladilar, o'rtoqlari to'g'irlaydi, o'qituvchi izoh beradi. Eng muhimi, o'qituvchi ham, o'quvchilar ham faol bir maqsadni ko'zlab ishlagandagina o'qitish jarayoni samarali bo'ladi. Shuning uchun, o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish asosida ularda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usini kamol toptirishda o'qish darslari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, o'qish darslari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, balki, ularning umumadaniy tafakkurini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ijodiy izlanuvchanlikni, insonlarga va atrof - muhitga bo'lgan munosabatini rivojlantiradi.

Bu vosita jarayonida bolalarda o'z-o'zini boshqarish, har-xil murakkab sharoitlardan qutilish yo'llarini izlash va fikrlash javobgarlik hislarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Tanaffus paytida o'tkaziladigan o'yinlar o'zining harakatlariga boyligi qiziqarliligi, qisqaliligi bilan o'quvchilardagi charchoq, toliqish, ruhiy zo'riqish hollarini yo'qotish, keyin bo'ladigan pedagogik jarayonga bolalarni tayyorlash vositasida qo'llaniladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, darslar orasidagi tanaffus vaqtida harakatli o'yinlar muntazam o'tkazilib borayotgan maktablarda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, davomatlari hamda sog'liqlari yaxshilangan.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim.

1. Bolalarda ijodiy faoliyat hatti-harakatlarini tarbiyalash;
2. O'quvchi shaxsida ma'naviy - axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
3. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lgan - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi komil inson kabilarni o'quvchilar qalbiga va ongiga singdirish.

O'qituvchining pedagogik mahoratida darsning o'rnini muhim. Dars shunday markazki, unda o'qituvchining har bir tafakkuri va harakatlari shu markaz atrofida aylanib, yana unga qaytib keladi. Har bir dars o'qitish jarayoniga o'z hissasini qo'shadi.

Zamonaviy dars faqat o'qitishning metod va formalari bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim-tarbiya, shakllantirish maqsadlarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida birgalikdagi o'zaro bog'liqligini ro'yobga chiqarishni, ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi.

2.2 Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllari.

O'qituvchining o'qitish vositalari uning ijodkorligiga, ko'p qirrali bilimiga, bolalarni sevishtirish faoliyatiga asoslanadi.

Dars berishda o'qituvchining muvaffaqiyati uning nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi shu predmetga qarashli psixologik-pedagogik, metodik kitoblarni, jurnal va gazetalarni muntazam ravishda o'qib borishi, badiiy adabiyotdan, har xil kinofilmlardan foydalanishi kerak. Dars berish jarayonida vositalar har xil bo'lishi mumkin. Bu o'qituvchining ixtisosligiga, uning qiziquvchanligiga, ehtiyoj-lariga, intellektual faolligiga bog'liq. Albatta bunda o'rganilayotgan material mazmunini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Dars bir nechta omillardan iborat. Shularning asosiysi – davlat tomonidan qabul qilingan programma. O'qituvchi o'quv programmaning asosiy yo'nalishlarini bilishi har bir darsda 3 ta masalaga e'tibor qaratishi kerak. Bular:

1.Tarbiyaviy masalalar–o'quvchilarning atrofga bo'lgan dunyoqarashini shakllantiradi. Ularda ijodiy izlanuvchanlik, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydi.

2..Ilm oshiradigan masalalar – o'z ichiga o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni oladi.

3. Bilish masalalari – o‘quvchilarda o‘rganilayotgan materiallardan asosiysini, muhim joylarini ajrata olish qobiliyatini, o‘quv faoliyatida va fikrlashda mustaqil bo‘lishni, o‘qishdagi kiyinchiliklarni yengishini shakllantiradi. Harakatli o‘yinlar kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarning hayotida harakatli o‘yinlar ularning chiniqu borishiga va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, 6-8 yoshli bolalarda obrazli (qahramonlar qatnashgan) o‘yinlar ularning fikrlash hamda atrof-muhitni his qilish qobiliyatlarini boradi. Har xil obrazlarga tahlil qilingan o‘yinlarni o‘ynab borish jarayonlarida o‘quvchilarda o‘zlarini boshqarish qobiliyati, faol harakat qilish malaka va ko‘nikmalari shakllana boradi.

Taqlidli o‘yinlarning muhimligi shundaki, ularda jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun juda muhim sharoitlar yaratiladi. Masalan, fazogirlar o‘yinida raketadagi joyga o‘rnashib olish uchun iloji boricha tez yugurish talab qilinadi. obrazlarga taqlid qilib o‘ynaladigan o‘yinlar davomida bolalar o‘sha obrazlarga mahliyo bo‘lib charchoqni unitishadi, ba’zi bir murakkab bo‘lgan harakatlarni ham bajarib yuborishadi. Natijada, ularda chidamlilik va boshqa sifatlar rivojlantirib boriladi. Harakatli o‘yinlarni bolalarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayorgarligi, fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘tkazish jarayonida o‘qituvchidan kata mas’uliyat talab etiladi.

O‘yin qoidasini va tartibini bolalarga to‘g‘ri tushuntirib borish ularda har bir harakat yoki obraz to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qila olish o‘yinining uyushqoqlik bilan o‘tkazishni ta’minlaydi.

Birinchi sinf o‘quvchilari bilan o‘zlari tanlagan o‘yinlarni o‘tkazish lozim. Bunda bir bola o‘yin mazmunini, boshqasi o‘yin qoidasini tushuntiradi. Zaruriyat tug‘ilsa, o‘yin o‘qituvchi tomonidan qayta tushuntiriladi.

Doskada 1 ta harf 3-4 xilda yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Shulardan bittasi husnixatga amal qilgan holda yozilgan bo‘ladi. Doskadagi o‘quvchilar to‘g‘ri yozilgan variantni topib, qayta yozib ko‘rsatadi.

“Harflar adashib qoldi”

Magnit doskaga kesma harflardan soʻzlar tuzadilar. Undagi biror harfni oʻrni almashtirib qoʻyilgan boʻladi. Yoniga shu predmetni oʻzi yoki rasmi osib qoʻyiladi. Oʻquvchiga shu predmetni nomini bir necha marta talaffuz qilishi, boʻgʻinlab aytishi tavsiya qilinadi va shundan soʻngadashib qolgan harf oʻrniga qoʻyiladi.

Mehnat darslarida oʻyin vositalari

Maqsad: Mehnat darsi: "Mehmon kutamiz" Bolalarga mehmon haqida tushuncha berish, mehmon kutishda dasturxon bezash, idishlarni yuvishga oʻrgatish.

Maktab oshxonasida ikkita stol bezatiladi va "mehmon kutamiz" oʻyini oʻtkaziladi. Bolalar 4 tadan ikki guruhga boʻlinadi. Har bir guruh bolalari idishlarni yuvishlari, vazaga salfetkalarini toʻgʻri va chiroyli solib qoʻyishlari kerak boʻladi.

Oʻyin bolalarda katta qiziqish uygʻotadi. Mehnat oʻz-oʻziga xizmat qila bilish koʻnikmalarini va estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

Nafaqat oʻqish, yozuv, matematika fanlaridan, balki mehnat, rasm, jismoniy tarbiya fanlaridan ham oʻyinlar oʻtkazish mumkin.

Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya fanidan darslarda qoʻllash mumkin boʻlgan oʻyin elementlari jismoniy tarbiya darslarida koʻproq harakatli oʻyinlar oʻtkaziladi. Bunda xalq oʻyinlaridan, milliy oʻyinlardan foydalanish mumkin. **Masalan:** "podachi", "otishma", "durra", "qirq tosh", "toʻpni aylana ichiga tushir", "chaqqonlar", "chavandoz", "chillak" kabi oʻyinlar oʻquvchilarni Vatanni himoya qilishga, chidamlilikka oʻrgatadi.

"Eng chaqqon"

Oʻyinda 6-8 bola qatnashadi. Tekis joyga toʻnka yoki kursi, yashik qoʻyiladi. Uni toʻnka deyiladi. Kim birinchi, kim ikkinchiligi chek tashlab belgilab olinadi. Bolalar toʻnka ustiga oʻz buyumlarini qilib qoʻyadilar. Sakrashga ruxsat berilgach 1-bola yugurib bola oʻz buyumini olishga harakat qiladi, olib oʻtsa u bir ochko oladi.

Ololmasa 0 ochko oladi, agar olayotganda buyumini tushurib yuborsa oldingi ochkosidan mahrum boladi.

Doskaga ikki o'quvchi chiqadi. Zinani ikki chetidan turib, misollarni yechadilar. Kim zinaning cho'qqisiga birinchi chiqsa u g'olib hisoblanadi.

“Xato qilma” o'yini

16-3=	120-20=
56-44=	60-25=
300-150=	800-20=
900-100=	900-400=

Singari misollar doskaga yozib qo'yiladi. Bu o'yinda hamma o'quvchilar qatnashadilar. O'quvchilar daftarlariga misollarni javobini yozadilar. Kim xatosiz bajargan bo'lsa, o'sha o'quvchilar qatnashadilar va rag'batlantiriladi. 1, 2, 3-o'rinni olgari o'quvchilar g'olib deb topiladi.

O'qituvchi ishlash yo'llarini ko'rsatadi. O'quvchilar ovoz chiqarmay daftarga ishlaydilar, so'ng qo'l ko'taradilar.

“Misol ishlash” o'yini

O'yin mazmuni: doskaga ushbu misollar yozib qo'yiladi:

24-6	16+14	32-21
7+8	5+4	44+6
6+6	8+9	7+9

O'quvchilar bular orasidan bir xonali sonlarni qo'shish jadvaliga tegishli misollarni topishlari, ularni o'qishlari va javobini aytishlari kerak.

"Kim tezroq" o'yini

O'yin mazmuni: uchta misol yozilgan bo'ladi:

8	5	9
6	8	3
+ 9	+7	+9
7	6	6

Har qaysi o‘quvchi chiqariladi, ular o‘qituvchining ishorasi bilan yig‘indilarni hisoblashga kirishadilar va ularni doskaga yozadilar. Qolgan o‘quvchilar esa kuzatib turishadi. Birinchi bo‘lib to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi

“Sonning tarkibini toping”

O‘yin mazmuni: magnit doskasida 9 raqami ko‘rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligi so‘raladi. O‘quvchilar magnit doskasida ko‘rsatadilar.

$$8+1=9$$

$$6+3=9$$

$$7+2=9$$

$$5+4=9$$

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar sonning tarkibini aniqlashadi. Albatta, birinchi bo‘lib yechgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

"Javobi 4 chiqishi kerak"

To‘rt bola to‘rt xil amal bo‘yicha misol yechyapti. Ular bir shartga rioya yetishlari – ya’ni, shunday sonlarni topishlari kerakki, ularni 2 ga bo‘lganda, ko‘paytirganda, qo‘shganda va 2 ni ayirganda javobi bir xil, albatta 4 chiqsin.

$$X:3=$$

$$X+2=$$

$$X*2=$$

$$X-2=$$

Bundan tashqari, turli matematik topshiriqlar, qiziqarli masalalardan ham foydalanilsa bo‘ladi.

IV. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish. Demak, dars yaxshi o‘tishi uchun o‘qituvchi avvalo izlanuvchan, bilimdon, tasavvuri keng, bolalarni darsga qiziqтира olishi lozim.

Har bir o‘yin o‘ziga xos maqsadni va o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlanishini hisobga oladi.

O‘quvchilar har kuni har xil, hatto bir kunda bir necha xil o‘yin tashkil etilishini hohlaydilar. Shuning uchun tarbiyachi o‘yin tafsiloti berilgan qo‘llanmalardan, “Gulxan”, "G‘uncha" jurnallarida yoritilgan o‘yinlardan foydalangan holda o‘zi ham ijodiy izlanishi kerak. Ayrim o‘yin elementlarini o‘zgartirib boshqacharoq tashkil etishi yoki murakkabroq o‘yinlarni soddalashtirib bolalarga moslashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman, didaktik o'yinlarni bolalar yoshi, ularning bilim darajalari va qobiliyatlariga moslashtirish zarur. Shundagina tashkil etilgan o'yinlar faqat vaqt o'tkazish uchungina emas, balki, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar uchun xizmat qiladi, deyish mumkin. O'quvchilarda ijodiy faoliyatini shakllantirish ish tajribasi har bir o'qituvchi uchun o'rnak bo'lishi tabiiydir. Chunki uning asosiy maqsadi milliy va ijodiy qobiliyat asosida komil insonni voyaga yetkazishga qaratilgan. Shuni aytish kerakki, respublikamiz maktablarida bu sohada ish olib borayotgan boshlang'ich ta'lim fidoyilarini ko'plab uchratish mumkin. Kuzatishlar, ish tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga, ma'naviy - axloqiy saviyasini shakllantirishga alohida ahamiyat beradilar. Bu albatta ijobiy hodisa. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanishning mazmuni shakl va metodlari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham biz kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanishning mazmunini ilmiy pedagogik asoslarini aniqlab o'qituvchilarga tavsiya etishga harakat qildik. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish jarayoni shakllandi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarining hayotida harakatli o'yinlar ularning jismoniy chiniqa borishiga va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki shu bilan birga ularning fikrlash hamda atrof- muhitni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Natijada: O'quvchilarning hayoti, e'tiqodlari, intilishlariga samimiy qiziqish va hurmat bilan qarash rivojlanadi. Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Didaktik o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin jarayonida, qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi. Bularning hammasi asta- sekinlik bilan o'quvchilarning bilim va tushunchalarga, his - tuyg'ulariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

III bob. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin mashg‘ulotlarini shakllantirish samaradolligi.

3.1.Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o‘yin mashg‘ulotlaridan foydalanish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikning shakllanishi ko‘p jihatdan uning boshlang‘ich ta‘lim mazmuniga, noan‘anaviy metodlarga bog‘liq. Agar o‘quvchi maktab ta‘limiga har tomonlama tayyor bo‘lsa, o‘z aqliy, ijtimoiy, irodaviy, hissiy imkoniyatlariga ega bo‘lsa, unda cheksiz quvonch, shodlik, o‘ziga ishonch bilan birga qayg‘urish, yordam berish, achinish kabi xususiyatlar shakllangan bo‘lsa; unda insoniylik, ijodiy izlanuvchanlik, aniq maqsadga qaratilgan g‘oyalar kamol topadi. Chunki, bilimlar olamiga kirib borish yo‘lidagi intilishlar o‘quvchini kelajakda uzoq, lekin aniq manzilga, cho‘qqilarga chiqishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Albatta bunday xususiyatlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda faqatgina ijodiy faoliyatni shakllantiribgina qolmay, ularning bilimini oshirishda xulq atvorini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Demak, o‘quvchilarning kichik yoshidan boshlab ijodiy faoliyatni shakllantirish boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Ijodiy faoliyatni shakllantirishning mohiyati o‘quvchilarda axloqiy ong, tuyg‘ulari, xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shunday ekan, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish g‘oyat muhimdir.

Ko‘p yillik kuzatishlar shundan dalolat beradiki, kichik yoshdagi o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda o‘yinlardan foydalanish ma‘naviyati

barkamol avlodni voyaga yetkazishning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatida ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni hisobga olgan holda, yosh va individual xususiyatlari qonuniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Olib borilgan kuzatishlar ijodiy faoliyatga o'rgatishda o'yinlardan foydalanishda quyidagilarga amal qilish samarali natijalar berishini ko'rsatadi:

1. O'qituvchi bolalarning hammasini birday chin ko'ngildan yaxshi ko'rishi va buni shaxslararo munosabatlarda emotsional - hissiy ifodalay olishi, sinfda ijobiy ruhiy muhit o'rnatishini bilishi;

2. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari ularning faoliyatini nazarda tutishi;

3. Bola imkoniyatlariga ishonch bilan qarash, u yaxshi o'qiydimi, o'zini yomon tutadimi, bundan qat'i nazar boladagi biologik va psixologik imkoniyatlardan to'la foydalanishga intilish.

4. Bolalarning psixologik holatini aniq bilish va ularda insonpar-varlikni shakllantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar bolalar shaxsini shakllantirishda o'yinlardan foydalanish uchun umumiy sharoit yaratib, ular faoliyatini tashkil qilishning yo'nalishini belgilab beradi. Bolalarda ijodiy izlanuvchanlikning shakllanishi ko'p jihatdan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi, uning ko'p qirrali faoliyatiga bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'ziga topshirilgan o'quvchilari orasida ish olib borib, ta'lim va tarbiya masalalarida maktab va oila tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablarda mushtaraklik bo'lishiga harakat qiladi. O'qituvchi ota - onalar bilan ish olib borar ekan, umum pedagogik prinsipga rioya qiladi. Bunda u maktab ta'lim ishining maqsad va vazifalari birligiga asoslanib, tarbiyaviy ishning turli usul va vositalaridan o'rni bilan foydalanadi.

Haqiqatan ham boshlang'ich ta'lim jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda ijodiy faoliyatini shakllantirishda «O'qish» darslari bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Mashg'ulotlar jarayonida ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlar haqida beriladigan bilimlar

o'quvchilarga nazariy bilim olish, bu borada ma'lum ko'nikma va malaka hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada ularning ijodiy faoliyati haqidagi bilimlari kengayadi.

O'quvchilarda ijodiy faoliyatga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish aniq maqsadni ko'zlovchi izchil jarayon bo'lgan «Boshlang'ich sinf darslarida» amalga oshiriladi.

O'qitish jarayonida o'quvchilar ongida ijodiy faoliyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish ularga ilmiy - nazariy asosga ega bo'lgan bilimlarni berish, chuqurlashtirib borish, o'quvchilarning ijodiy faoliyat haqidagi bu bilimlarini egallash imkoniyatlarini aniqlash hamda ularda ijodiy faoliyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat bo'ldi. Shuning uchun ham kichik yoshdagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishda o'qituvchilar qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish haqidagi bilimlarni berish;

2. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ijodiy faoliyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish haqidagi bilimlarni chuqurlashtirib borish;

3. O'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish haqidagi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirish;

4. O'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishdagi ko'nikma va malakalarining shakllanishi uchun shart - sharoit yaratish;

5. «O'qish» darslarining samaradorligini tahlil etib borish.

6. Har bir dars, mashg'ulotning ijtimoiy hayot bilan aloqadorligiga erishish.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida Yakkasaroy tumanidagi 26 - maktabda sinov tajriba ishlarini olib bordik. Tajriba uchun shu maktabning pedagogik jamoasi va 4-sinf o'quvchilari tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida "Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda o'yin

mashgʻulotlarini tizimlashtirish metodikasi” mavzusiga oid savolnomalar ishlab chiqildi. Tajriba sinov ishlari quyidagi savolnomalar asosida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida maktab oʻqituvchilari va 4 sinf oʻquvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qildik.

Anketa soʻrovnoma savollari quyidagicha.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun.

1. Bolalar oʻyinlari degana qanday jarayon tushiniladi?
2. Didaktik oʻyinlarning xalq oʻyinlaridan farqi nimada?
3. Dars jarayonida qanday didaktik oʻyinlardan foydalanasiz?
4. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini shakllantirishda xalq va didaktik oʻyinlari qanay tarbiyaviy ahamiyatga ega?

Daraja	Tajriba- sinov boshida		Tajriba- sinov oxirida	
	Oʻqituvchilar soni	% hisobida	Oʻqituvchilar soni	% hisobida
Yuqori	6	25	8	32
Oʻrta	6	30	9	45
Quyi	9	45	4	20

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun.

1. Qanday oʻyin turlarini bilasiz?
2. Xalq oʻyinlaridan qaysilarini oʻynagansiz?
3. Dars jarayonida oʻqituvchingiz tomonidan qanday oʻyinlar tashkil qilingan, aytib bering?
4. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida qanday haraktli oʻyinlarni oʻynadingiz?

Daraja	Tajriba- sinov boshida		Tajriba- sinov oxirida	
	Oʻquvchilar soni	% hisobida	Oʻquvchilar soni	% hisobida

Yuqori	6	25	8	32
Oʻrta	6	30	9	45
Quyi	9	45	4	20

Berilgan savollarga javoblarni tahlil qilib chiqqanimizdan soʻng boshlangʻich sinf oʻqituvchilari va oʻquvchilari bilan tanlangan mavzu boʻyicha quyidagi “Odobnoma, oʻqish, matematika darslarida didaktik oʻyinlardan foydalanish usullari ” mavzusida tajriba sinov ishlarini olib bordik. Tajriba boshida oʻquvchilarni ikki guruhga ajratib oldik.

Birinchi guruh – nazorat guruhi.

Ikkinchi guruh – tajriba guruhi.

Ikkala guruh oʻqituvchilariga ham bir xil matndagi savolnomalar tarqatildi. Tajriba –sinov ishlarini olib borish jarayonida tajriba guruhidagi oʻqituvchilar bilan biz alohida ishlar, tushuntirish, suhbat, seminarlar, konferensiyalar tashkil qildik. Tajriba –sinov yakunida nazorat va tajriba guruhi oʻquvchilarining berilgan savollarga javoblarini tahlil qilib chiqdik.

Olib borilgan matematik –statistik tahlil shuni koʻrsatadiki, tajriba –sinov oʻtkazilgan tajriba guruhi koʻrsatkichlari nazorat guruhlariga koʻrsatkichidan ancha yuqori.

Bu borada oʻqituvchining faoliyati va oʻquvchilarning shu oʻqituvchiga bergan baholari solishtirildi hamda uning faoliyati har tomonlama oʻrganildi. Bu tadqiqotni taqlil qilish maqsadida oʻqituvchining taʼlimni didaktik oʻyinlar asosida tashkil etishi oʻquvchilarni uning darsi haqidagi tasavvurlari bilan solishtirildi.

Tadqiqot natijasida taʼlimni didaktik oʻyinlar asosida tashkil etish maʼlum natijaga erishgan oʻqituvchilar faoliyatidagi qirralar tajribali oʻqituvchilarnikidan samaradorligi haqidagi savolga javob olish maqsadida tahlil oʻtkazdik. Buning uchun oʻqituvchi sifatlarini koʻrsatuvchi maxsus varaqani oʻqituvchilarga amalyotchilarga tarqatib, ulardan oʻqituvchilariga baho berish soʻraldi.

Keltirilgan manbalarning umumiy tahlili asosida oʻqituvchilar faoliyatidagi didaktik oʻyinlardan foydalanish sirlari, yaʼni oʻqituvchining pedagogik jarayonni yaxshi tushunishi va taxlil eta olishi, oʻz faoliyatiga

tanqidiy baho berishi, Har bir mashg'ulotda o'quvchilar mavzu haqida qisqacha tushuncha berib uni suhbat uslubi yoki o'yin orqali amalga oshirilishi eng muqim asos ekanligini va ta'limni didaktik o'yinlar asosida tashkil etishda o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilarning faolligi zarurligini ko'rsatdik.

Ushbu bobda boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar shaxsini shakllantirishda mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan, xalq o'yinlaridan foydalanish amaliyotdagi holati o'z ifodasini topgan. Unda o'quvchilar shaxsini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish yo'llari ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlar bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayoni va ularning mazmunini tahlil etish; o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish; o'quvchilar ishtirokida suhbatlar uyushtirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar metodikasi yoritilgan.

Hozirgi paytda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil etishning turli shakl va usullarni ishlab chiqish yo'nalishida muayyan Bitiruv malakaviy ishlarni olib bormoqdalar. Bizning xam bu boradagi Bitiruv malakaviy ishlarimizda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishini rejalashtirish dastur va usulubiy ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, o'quv adabiyotlari muxim dasturiy asos bo'lib xizmat qildi. Amalga oshirgan taxliliy Bitiruv malakaviy ishlarimiz natijasida ishini boshlang'ich ta'lim bosqichi fanlari imkoniyatlaridan muvafaqqiyatli foydalanish yo'lidagi kamchiliklar aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishimizni bajarish jarayonida quyidagi xulosalar va tavsiyalar.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash tadqiq qilish, xisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va turlarini o'rganish rivojlantirishga yo'naltiradi.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Didaktik o‘yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

1. Xulosa qilib shuni aytish joizki yangi asrda o‘qitish jarayoni didaktik jarayonga aylanmog‘i lozim. Boshqacha qilib aytganda ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quvchining aqliy zakovatini erkin fikrlashini mustaqil faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlanish zarur.
2. Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab o‘z malakasini oshirib borish bir tomondan o‘qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirmas jarayon shaxsini intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.
3. Psixologik nuqtai nazardan o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirish bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo‘larkan, u birinchidan odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim.
4. Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida orttirgan bilimlarimiz tajribalarimiz kelajakdagi o‘qituvchilik faoliyatimizda muhim ahamiyat kasb etishini e‘tirof etgan holda kelajakda bu mavzuni yanada mukammal o‘rganib tadqiqotlar olib borish niyatimiz borligini bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1 Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat.- T.:O‘zbekiston. 1992.

- 2 Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O‘zbekiston. 1999.
- 3 Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.:Sharq. 1998.
- 4 Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik muloxazalar).-T.:Sharq.1998.
- 5 O‘zbekiston Respublikasining «Boshlang‘ich sinf tarbiya va sport to‘g‘risida» qonuni (Yangi taxrirda). 2000.
- 6 O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonuni. 1997.
- 7 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O‘zbekistonda Boshlang‘ich sinf tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida» qarori. 1999. 27 may.
- 8 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Sog‘lom avlod uchun davlat dasturi». 1997.
- 9 Abdullayev A.A. Boshlang‘ich sinf tarbiya vositalari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 1999.
- 10 Abdullayev A., Xonkeldiyev SH.X. Boshlang‘ich sinf tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg‘ona, 2001.
- 11 Abdumalikov R., Abdullayev A. va boshqalar. Boshlang‘ich sinf tarbiya ta’limi ilmini takomillashtirish masalalari.
- 12 Akramov A.K. O‘zbekistonda Boshlang‘ich sinf madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma. O‘zJTI nashri. 1997.
- 13 A’zamjon Xoliqov Pedagogik mahorat.Iqtisod moliY.
- 14 A’zamjon Xoliqov Pedagogik mahorat.Iqtisod moliY.
- 15 Nasriddinov F.N., Shoternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda Boshlang‘ich sinf tarbiya va sport. T., «O‘qituvchi», 1993.
- 16 Ajdodlar o‘giti, hikmatlar, hikoyatlar, tamoyillar.Toshkent,1991 y.
- 17 Usmonov R. Saodatnoma. «O‘qituvchi».Toshkent, 1995y.
- 18 Azlarov Y.T. Bolalarni sevish san’ati. Toshkent. 1992 y.
- 19 Mavlonova R. Arabova M. Salohiddinova G‘. “Pedagogik texnologiya” Toshkent 2008 y.
- 20 Tolipov U. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya T. 2005 y.

